

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 5/8

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Намазова Умида Нормуродовна</i> ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ (1929-1945 ГОДЫ).....	10-15
<i>Эрназаров Туйгун Раджабович</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	16-21
<i>Хужаниязов Уктам Ешбаевич</i> “ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ” СТУДИЯСИ ХУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ	22-27
<i>Шаимкулов Азамат Холмуратович</i> ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ	28-38
<i>Муродов Ҳалим Салимович</i> ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР	39-46
<i>Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли</i> ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ– ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН	47-51
<i>Shonazarova Nargiza</i> TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR	52-57
<i>Axmadova Nafisa Axmad qizi</i> O‘ZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI	58-64
<i>Qodirova Ra’no Mamirjonovna</i> O‘ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING O‘QITILISHI	65-70
<i>Yunusxo’jayev Habibulla Zafar g’o’li</i> SHARQDA KUCHLI IJTIMOIIY NIHOYA TIZIMI TARIXI	71-75
<i>Нарбеков Абдикамил</i> НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ	76-80
<i>Alimova G‘unchaxon Baxadirovna</i> JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA	81-85
<i>Jumanazarova Fotima</i> XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	68-93
08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ	
<i>Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich</i> PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW	94-100

<i>Hamrayev Amirzoda</i> ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI TASHKIOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	101-109
<i>Xaitbobaeva Nigora Bakmatatovna</i> T'UQIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANIШ B'YIЧA ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАЛАРИ.....	110-119
<i>Xalilov Qahramon Qurbonboyevich</i> MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERNI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODELI.....	120-132
<i>Махмудов Турсунпулат Давронович</i> ИНВЕСТИЦИЯ МАНБАЛАРИНИНГ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИ	133-144
<i>Ishchanova Salomat</i> KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING O'RNI.....	145-150
<i>Muydinova Zilola Voxid qizi</i> ЧЕГАРА БОЖХОНА ПОСТЛАРИ ФАОЛИЯТИДА “АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ЙЎЛОВЧИ ХАРАКАТИ” МОБИЛ ИЛОВАСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ ИҚТИСОДИЙ ТАХЛИЛНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.....	151-158
<i>Samandarov O'gabek, Ismoilov Shohjahon</i> TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	159-164
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Саидова Камола Усканбаевна</i> ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ	165-173
<i>Omonturdiyev Orzu G'afforovich</i> INSONNING MA'NAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI	174-179
<i>Очилова Гузаль Араловна</i> ЮКСАК МАЪНАВИЯТ-МАНФААТЛАР БИРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ.....	180-185
<i>Nurmatova Umida Jalolidinovna</i> MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA'LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI.....	186-192
<i>Vafayeva Dilafruz Artikovna</i> AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIIY TA'LIMOTIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIK.....	193-198
<i>Karimov Zafarbek Ataboyevich</i> IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARINING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	199-202
<i>Bozorova Ro'zigul Sharofovna</i> MEHRSIZLIK HODISASINI KELITIRIB CHIQUVCHI OMILLAR	203-212
<i>Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna</i> DINIY MANBALARDA IJTIMOIIY HAMKORLIK O'OYALARI	213-218
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF FALSAFASIDA GO'ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI	219-224

<i>Dehqonov Behzod Baxtityorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING BAG'RIKENGLIK G'OYALARINI O'RNI VA AHAMIYATI	225-230
<i>Abdullayeva Firuza Sharipovna</i> NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI	231-236
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL -MAORIF" ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR	237-243
<i>Ибрагимов Солижон Эргашович</i> АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА "ОММАВИЙ МАДАНИЯТ" ТАҲДИДИ.....	244-251
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Qodirova Mukaddas Tog'ayena</i> BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI.....	252-257
<i>Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich</i> DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE	258-265
<i>Hamroyeva Sharifa Shukur qizi</i> TARJIMADA MILLIY SO'ZLARNING BERILISHI (OYBEKNING "NAVOIY" ROMANI INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA)	266-271
<i>Olimova Gulfiza Muradullayevna</i> BADIIY SAN'AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QO'LLANILISHI.....	272-281
<i>Айниддинов Иқрориддин Шарифович</i> АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	282-287
<i>Turaeva Dilfuza Daminovna</i> O'ZBEK TILIDA OBRAZLI SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	288-295
<i>Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna</i> LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI	296-305
<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldoshev Rustam Dilshod ugli</i> LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	306-311
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZELOGIK BIRLIK LARNING KOMMUNIKATIV TA'SIRI XUSUSIDA	312-317
<i>Шамақсудова Саодат Хидоятовна</i> МАССМЕДИА АСПЕКТНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР.....	318-324
<i>Шатова Ирина Юрьевна</i> ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	325-330
<i>Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna</i> FRAZELOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING KOGNITIV ASOSLARI	331-335

<i>Alimjanova Shohsanam Azamat qizi</i> KO'P MA'NOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI	336-340
<i>Турниязова Шахноза Нигматовна</i> МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	341-347
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI	348-352
<i>Aminova Dilnoza Hikmatullayevna</i> THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY	353-358
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи</i> ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ	359-365
<i>Mamatallyev To'liqin Xushmamat o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI	366-378
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Saidov Jur'at Sodirovich</i> МАКТАВГАЧА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	379-384
<i>Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,</i> ТЕХНИК ОЛИЙ О'QUV YURTLARIDA OO'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA METODLARI	385-390
<i>Tadjixodjaeva Эльвира Рашидовна</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ	391-396
<i>Тўрахонова Барно Турсунбой қизи</i> БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ	397-406
<i>Ashurova Sitora Erkinovna</i> USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION	407-412
<i>Каримжоновна Мунаввар Ибрагимовна</i> ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона кўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида).....	413-421
<i>Xamirayev Rustam Abdirazakovich</i> VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI ТАКОМИЛЛАСHTIRISH	422-426
<i>Хашимова Масуда Камилжановна</i> КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК	427-435
<i>Бердикулова Насиба Эркинжоновна</i> СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ	436-442

Saidnazarova Gulshan Bolta qizi

AL-BUXORIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO
SIFATIDA443-448

11.00.00–Филология фанлари

Olomova Gulfiza Muradullayevna
O'zMU tayanch doktoranti
olimovagulfiza@gmail.com.

BADIIY SAN'AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QO'LLANILISHI

Annotatsiya. Tadqiqot maqsadi: Poetika adabiyot ilmining muhim qismi bo'lib, ilmi aruz, ilmi qofiya hamda ilmi bade' uning tarkibiy qismidir. Mumtoz adabiyot an'alariga kiruvchi janrlar, ularning qofiyasi, vazni hamda ularda qo'llanilgan badiiy san'atlar poetikaning o'rganish manbasi bo'lib xizmat qiladi. Mumtoz janrlar mumtoz adabiyot an'alarining muhim qismi hisoblansa-da, xalq dostonlari, xususan, Xorazm "oshiq" turkumi dostonlarida ham alohida ahamiyatga ega. Bu xususida bir qancha manbalarda so'z yuritilishiga qaramay, o'rganilishi lozim bo'lgan jihatlar hali talaygina. Shu sababdan ushbu maqolada "Oshiqnoma"lardan keng o'rin olgan g'azal, masnaviy, tuyuq, musammat janriga mansub bo'lgan murabba', muxammas, musaddas, ularda qo'llanilgan ilmi bade'ning lafziy san'at, ma'naviy san'at hamda mushtarak san'at turlari haqida so'z yuritiladi. Tadqiqot metodlari: Ushbu maqolani yoritishda tarixiy va statistik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot natijalari: Xorazm dostonlari tarkibidagi mumtoz janrlarda she'riy san'at namunalarining 30 dan oshiq turi keltirilgan. Xulosa: "Oshiq" turkum dostonlarida qo'llanilgan she'riy san'atlar xalfa, baxshilarning mumtoz adabiyot, xususan, ilmi bade'ni mukammal bilganligini ifodalaydi.

Kalit so'zlar: "Oshiq" turkum dostonlari, mumtoz janrlar, ilmi bade', lafziy san'atlar, ma'naviy san'atlar, lafziyu ma'naviy san'atlar.

Olomova Gulfiza Muradullayevna
Doctorate Student of UNU

TYPES OF POETIC ARTS USE IN XORAZM EPICS

Abstract. The purpose of the research: Poetics is an important part of the science of literature, and the science of aruz, the science of rhyme, and the science of bade are its components. Genres belonging to classical literary traditions, their rhyme, weight, and artistic arts used in them serve as a source of study of poetics. Although classical genres are considered an important part of classical literary traditions, folk epics, in particular, epics of the Khorezm "lover" series, are also of special importance. Despite the fact that several sources speak about this, there are still many aspects that need to be studied. For this reason, in this article, the ghazal, masnavi, tuyuq, musammat genres, muhammas, musaddas belonging to the genres of ghazal, masnavi, muhammad, used in them, the verbal art, spiritual art and common art of art used in them. types are discussed. Research methods: historical and statistical methods were used in the coverage of this article. Research results: More than 30 types of examples of poetic art in classic genres of Khorezm epics are presented. Conclusion: The poetic arts used in the epics of the "Ashiq" series show that the khalfa and bakhshis had a perfect knowledge of classical literature, especially the science of bade.

Keywords: "Ashik" category epics, classical genres, Ilmi bade, lafziy arts, spiritual arts, lafziyu spiritual arts.

Олимова Гульфи́за Мурадуллаевна
Докторант УзМУ

В ХОРАЗМСКОМ ЭПОСЕ ВИДОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСККУСТВА **ПРИЛОЖЕНИЕ**

Аннотация. Цель исследования: Поэтика является важной частью науки о литературе, а науки аруз, наука о рифме и наука о баде являются ее составляющими. Источником изучения поэтики служат жанры, принадлежащие классическим литературным традициям, их рифма, вес и использованное в них художественное оформление. Хотя классические жанры считаются важной частью классических литературных традиций, особое значение имеют и народные эпосы, в частности эпосы хорезмийской «любовной» серии. Несмотря на то, что об этом говорится в нескольких источниках, существует еще множество аспектов, которые необходимо изучить. По этой причине в данной статье используются жанры газели, маснави, туюк, мусаммат, мухаммы, мусадды, относящиеся к жанрам газели, маснави, мухаммеда, используемое в них словесное искусство, духовное искусство и общехудожественное искусство. Методы исследования: при освещении статьи использовались исторические и статистические методы. Результаты исследования: Представлено более 30 видов образцов поэтического искусства в классических жанрах хорезмского эпоса. Вывод: Поэтическое искусство, использованное в эпосах серии «Ашик», показывает, что халфа и бахши обладали прекрасным знанием классической литературы, особенно науки баде.

Ключевые слова: эпосы серии «Ашик», классические жанры, наука и искусство, словесное искусство, духовное искусство, словесно-духовное искусство.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N38>

Kirish

Mumtoz janrlarning badiiyati doimo ahamiyatga molik masalalardan bo'lib, badiiy san'at turlaridan foydalanish shoirning tasvirlash mahoratini, tafakkurini ko'rsatuvchi vosita hisoblanadi. "Adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri hisoblangan" [2; 4]. She'riy san'atlarni qo'llash orqali ijodkor asarlari yanada ta'sirli, estetik jihatdan yuqori cho'qqiga chiqishi mumkin.

O'rta asrlar adabiyotining asosini tashkil etgan mumtoz janrlar Xorazm "oshiq" turkumi dostonlariga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. "Xorazm dostonlari XIX asr boshlaridayoq savodxon, mumtoz adabiyot bilan yaxshi tanish bo'lgan baxshilar, madrasa ta'limini olgan kotiblar tomonidan yozuvga ko'chirila boshlagan. O'sha jarayonda dostonlar she'riy tizimiga aruz vazniga aloqador she'rlar faolroq kirib kela boshlagan" [20; 71 b]. Natijada dostonlar tarkibi badiiy san'atlar faol qo'llangan mumtoz janrlar bilan boyib borgan. Dostonlarda keltirilgan g'azal, masnaviy, mustahzod janrlari, musammam janri tarkibidagi murabba', muxammas, musaddaslarda ko'plab she'riy san'atlarni uchratish mumkin. Izlanishlarimiz davomida "Oshiqnoma"lar tarkibida keltirilgan 30 ga yaqin turdagi she'riy san'atlar namunalarini o'rganib chiqdik. Biz ushbu maqolada dostonlarda foydalanilgan har bir badiiy san'at turlariga misollar keltirish orqali o'z fikrimizni dalillashni lozim topdik.

Ma'lumki, ilmi bade'ni tashkil etgan she'riy san'atlar, o'z navbatida, ikki guruhga ajraladi: san'atlarning birinchi guruhi bevosita she'rning mazmuni, ma'nosi bilan bog'langan bo'lib, ma'naviy san'atlar (sanoe'i ma'naviy) deb ataladi. Nutqni, she'rni bezash, turli stilistik figuralar, so'z o'yinlari hosil qilish maqsadida ishlatiladigan san'atlar esa lafziy san'atlar (sanoe'i lafziy) deb yuritiladi [3. 2014, 15 b]. "Oshiqnoma"lar tarkibida she'riyatda yuksak badiiylikning muhim omillaridan hisoblangan [3. 2014, 23 b] ma'naviy san'atlarning faol darajada qo'llanganligini quyida keltirilgan namunalar orqali bilishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Maqolaga qo'yilgan masalani hal qilishda filologiya fanlari doktori, professor Ro'zimboyev S. tomonidan nashrga tayyorlangan Xorazm "Oshiqnoma" turkumidagi dostonlar tahlil qilindi.

Ushbu maqolani yoritishda tarixiy va statistik metodlardan foydalanildi.

Muhokama

Xorazm dostonlarida eng ko'p qo'llanilgan ma'naviy san'at turlaridan biri talmeh (tarixiy shaxslar, davlat arboblari, afsonalar, asarlar qahramonlari ismlarini keltirish san'ati [2, 2001, 10]) bo'lib, g'azal, murabba', muxammas, mustazod tarkibida keltiriladi:

G'azal tarkibida:

Abu Bakr, Umar, Usmon, rasul do'sti **Shohimardon**,
Ali o'zi sheri Yazdon, yolg'uzim senga topshurdim.

Murabba' tarkibida:

Yor uchun **Yusufni** ko'r, yuz ming balog'a cho'lashib,
 Ul **Xalil** topdi murod otashi norg'a ulashib,
 May ichib maston yurib, mohi tobonga do'lashib,
 Besh kundur bu jahon, mast o'lub asrak kezaver. [18. 2019, 128].

Muxammas tarkibida:

Soqiy ajal etishgach, qilma ovvora mani,
Mansur kabi chek endi, ko'nglimda dora mani,
Ibrohimdek tashlagil, o'tg'a ul nora mani,
Ismoildek qurbon qil, ko'yinda chora mani,
Zulayhodek Yusufdek qoldim zindon ichinda. [5. 2006, 106].

Mustahzod tarkibida:

Qosid kelturib **Yusuf** uchun **Ya'qubga** noma,
 Ul shahri Misrdin,
 Tashqarida fig'on etdi kim ko'rsalar agar,
 Vayroning emasmu? [17. 2013, 49].

Mubolag'a – adabiy asarda tasvirlanayotgan timsol holati yoki harakatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'ati [2. 2001. 4] bo'lib, "oshiq" turkum dostonlarida g'azal va muxammas tarkibida keltirilgan:

Muxammas tarkibida:

Olam kuyar o'tima, oh aylasam bu soat,
Insu jinslar titrashur aytur nechuk alomat,
Dev, parilar etmayin aytur bu nechuk ofat,
Ohim chiqsa zarracha qolmas hech kim salomat,
 Yetmas sanga bu nolam, so'zona bo'lmadim man. [10. 2006, 326].

G'azal tarkibida:

Qatra-qatra qonli yosh oqdi ko'zimdin mavj urub,
 Rahm qil, chashmim suvin selobidin, ey robbano. [18. 2019, 187].

So'zlaguvchi kalomni bir uslubdin ikkinchi uslubqa naql qilg'onda eshitkuchini ul kalomni tinglamoqqa ko'proq jalb etar [1. 1981, 184]. "Badoyi'u-s-sanoyi" da ta'rifi keltirilgan ushbu iltifot san'ati g'azal va muxammasda qo'llanilgan:

G'azal tarkibida:

Ismi gul, ruxsori gul, desam xatodir ul gula,
Voh ajab, donolari vasfinda nodon qildi gul. [15. 2011, 16].

Muxammas tarkibida:

Naylayin, **vohasrato**, dildordin ayrilmisham,
 Ikki nargis, ko'zlari xunxordin ayrilmisham.

G'amzayu husnda ikki mordin ayrilmisham,
 Qolmisham g'am ostida g'am xordin ayrilmisham,
 Ul qadi shamshod yuzi ruxsordin ayrilmisham. [15. 2011, 43].

“Oshiq” turkum dostonlarida kam qo'llanilgan san'at turlari ham mavjud bo'lib, ular faqat g'azal yoki muxammas yoinki masnaviy kabi bitta janr tarkibida sanoqli tarzda qo'llanilgan. Shunday san'at turlaridan biri takrir (takrorlash ma'nosini ifodalovchi san'at bo'lib, she'rda u yoki bu so'zni takror qo'llashni nazarda tutadi [2. 2001, 20]) bo'lib, faqat ayrim muxammaslar tarkibida keltirilgan.

Bir nechani ko'ribman, safo birla suhbatda,
Bir nechani ko'ribman, aysh birla ishratda,
Bir nechani ko'ribman, ado bo'lmas davlatda
Bir nechani ko'ribman, qayg'u birla hasratda
 Manki tolei miskin, cho'li mug'on ichinda. [5. 2006, 106].

Mumtoz adabiyotdagi janrlarda ifodalanayotgan biror fikrni isbotlash uchun xalq maqollaridan foydalanish orqali yuzaga keladigan irsoli masal san'ati “Edigo” dostonidagi muxammasda o'z ifodasini topgan.

Har ulug' rohi guzardur o'tsa har kim og'rimas,
Bir masal bordur qadimdan, tanimasni siylamas,
 Qarilar johillarni aytgan so'zlarin tinglamas,
 To sinab bitmas kishi, yaxshi-yomon anglamas,
 Anglabam bildim yangi pushti panohim afv qil. [4. 2006, 214].

Badiiy san'atlar orasida shunday bir turi borki, muallif yor ta'rifini keltirar ekan, uning go'zalligini bilib turib o'zini bilmaslikka soladi. Tajohul ul-orif deb nomlangan ushbu san'at turi ham “Oshiqnoma”ning ikkinchi kitobi tarkibidagi “Xiromon pari” dostonida keltiriladi:

Yorim mani qaro dersan, **qoshlaring qaro emasmu?**
 Oq yuzingda dona-dona, **xollaring qaro emasmu?** [9. 2006, 248].

Ma'naviy san'atlar tarkibiga kiruvchi ruju' san'ati shoirning oldingi misra yoki baytda qo'llagan badiiy tasvir vositasidan qaytib, keyingi misra yoki baytda unga qaraganda kuchliroq ifoda keltirishidir [2. 2001, 12]. Bu san'at turi o'ta kam o'rinlarda qo'llangan.

Bizga zulm etgan raqiblar bo'ldilar jondin judo,
Balki joni, xonumoni, notavonidin judo.
 Bu falakni boshidin tushdi boshima yuz balo,
 Bizga zulm etgan raqiblar bo'lg'ay ul yuzi qaro,
 Elu xalqim, xonumonimdin judo bo'lgan boshim. [10. 2006, 286].

Ma'naviy san'at namunalaridan biri bo'lgan iyhom san'ati ham dostonida ayrim o'rinlardagina qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin. “Royi Chin” dostonidagi g'azal baytlaridan birida iyhom san'atidan foydalanilgan:

May ichib mastona yursam, muborak jamolin ko'rsam,
 Shirin-shakar labin **so'rsam**, ko'rsam davlatli diydorin. [7. 2006, 140-141].

Ijodkorlar tomonidan keng foydalaniladigan husni ta'lil san'ati adabiy asarlarda tasvirlanayotgan biror hodisaga shoirona biror sabab ko'rsatish [2. 2001, 7] orqali yuzaga keladi. “Tohir va Zuhra” dostonidagi “Gul” radifli g'azalda husni ta'lilning go'zal namunasi berilgan:

Gul yuziga gulni o'xshatsam, gulga ne ayb erur,

O'zining ziynatini er bilan yakson qildi gul. [15. 2011, 16].

Ya'ni oshiq ma'shuqaning yuzini bog'dagi gulga o'xshatganki, yorning cheksiz go'zalligidan xijolat bo'lgan gul o'zini halok qilgan.

Kalomi jomi' – andog' kalomdurkim, o'gut, hikmat va zamoni birodarlardan shikoyat kibi bir nima bila shirayu zeb berilg'an bo'lur [1. 1981, 136]. Ushbu san'at turini "Malikai Dilorom" dostoni tarkibida ko'rishimiz mumkin:

Har kishi qilsa balandparvozlik topmas kamol,
Kimki mo'minga qilur bordur anga yuz ming zavol,
Garchi Sultoni jahon bo'lsang qadingni ayla dol,
Yaxshilik birla g'ariblarning buzilgan ko'nglin ol,

Toki Haq qilg'ay seni mahsharda sulton oqibat. [6. 2006, 306].

Ushbu muxammasda "Yaxshilik birla g'ariblarning buzilgan ko'nglin ol" misrasida nasihat qilish, o'git berish ma'nosi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aynan shu misra orqali kalomi jomi' san'ati yuzaga kelgan.

Qarama-qarshi ma'noli so'zlardan foydalanish san'ati bo'lgan tazod ham dostonida eng ko'p o'rinda qo'llanilganligini kuzatishimiz mumkin:

G'azal tarkibida:

Qo'limdin ketdi darmonim, **xazon** bo'ldi **gulistonim,**
Yig'lashib yor-u yoronim **raqiblar kuldi** naylayin. [11. 2008, 1 g'azal].

Muxammas tarkibida:

Do'st so'ziga tut quloq, **ag'yorni** pandin tutmagil,
Shum raqib fitnalarini uyqudan uyg'otmagil,
O'zgalarga til berib, holim parishon etmagil,
Ming tumanlik e'tiborim **bir diramga** sotmagil,
Yuz alam jonima jabri sitamkorim, uyg'on. [15. 2011, 91].

Tanosib – qo'llash doirasi nihoyatda keng bo'lgan va bir qator she'riy san'atlar bilan uzviy bog'langan ma'naviy san'at [3. 2014, 206 b] bo'lib, she'riy misralar tarkibida bog', bulbul, g'uncha, gul; ,toj, taxt, sulton so'zlari vositasida yuzaga chiqqan:

G'azal tarkibida:

Bog'ingga qo'ndi **bulbuling,** ochildi ham g'uncha **guling,**
Egam qaytardi chirog'ing, orzui armoning keldi. [5. 2006, 101].

Muxammas tarkibida:

Keldi Navro'z **bulbuli,** sayri **guliston** ayladi,
Yoydi **Gulning** vasfini olamga doston ayladi,
Ko'rguzib yorning jamolin mastu hayron ayladi,
Navhai ohin tuzib ko'p zoru afg'on ayladi,
Soqiy bir may suidi, ko'nglim dali-maston ayladi. [18. 2019, 129].

Tashxis san'ati ham dostonlarda nisbatan kam qo'llanilgan bo'lib, ayrim g'azallar tarkibida uchraydi:

Sunbulidur yoki **sarg'armish yuzi,** gul tobidin.

Bulbula yolg'iz yo'l ochib, zulfin zarafshon qildi gul. [15. 2011, 17].

Ushbu baytda insonga xos bo'lgan yuz rangining sarg'ayishi gulga ko'chirilishi natijasida shaxslantirish san'ati yuzaga kelgan.

Dostonlarning janriy tarkibida masnaviyalar kam uchrasa-da, ammo ularda ham she'riy san'at turlaridan yetarli miqdorda foydalanilgan. "Shaxriyor" dostoniga kiritilgan masnaviyda intoq (badiiy asarda hayvonlar yoki jonsiz narsalarni odamlarga o'xshatib so'zlatish [2. 2001, 9]) san'ati go'zal tarzda ifodalangan.

Ki aytur to'tilar zori nihoni,

Ki qumrilar kuylar behad sanoni,

Fig'on aylar gulni ustinda bulbul,

Tushur gullar aro kim anda g'ul-g'ul.

Kabutarlar yana g'uv-g'uv derlar,

Ki chumchuqlar uchib bismillo derlar. [10. 2006, 289].

Tartib san'ati ma'naviy san'atlar sirasiga mansubdir. Atama ma'nosi tartib san'ati mohiyatini deyarli to'la ifodalaydi. Shoir tasvirda voqea-hodisaning uzviy birin-ketinlikda, qat'iy tadrijda ifodalashga harakat qilsa tartib san'atini qo'llagan bo'ladi.

Kuyib, yonib, tutoshib nolai so'zon bila qoldim,

Davosiz darda qoldim malhami jonimdin ayrildim. [10. 2006, 293].

Atoulloh Husayniy ta'biri bilan aytganda ma'naviy san'atlarning ikkinchi nav'i tarkibiga kiruvchi tashbih va istiora "oshiq" turkum dostonlarining turli o'rinlarida qo'llanilgan. Ma'lumki, adabiyotda ikki narsa yoki tushunchani bir-biriga o'xshatish orqali yuzaga keladigan san'at turi bo'lgan tashbeh (ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'ati) she'riyatda foydalaniladigan eng serunum badiiy san'at turi hisoblanadi. She'riy parchalarni kuzatish davomida Xorazm dostonlarida ham bu holat yaqqol ko'zga tashlanishini ko'rishimiz mumkin:

G'azal tarkibida:

Urushda sher **arslondek**, ham **Rustami dostondek**,

Go'yoki **Yusufjondek**, ham rang-barang o'g'londur. [7. 2006, 126].

Muxammas tarkibida:

Ishq savdosi aning bo'ldi, bu jonning mosili,

Yo'q turur bul dunyoda o'zga umringning hosili,

May ichib, sarmast o'lan bir dali ishqning kokili,

La'lu gavhar, simu zardin bor boshining kokili,

Qaddi shamshod, qomati ul sarvdek nozim kelur. [18. 2019, 134].

Xorazm dostonlarida nisbatan kam qo'llanilgan istiora (adabiy asarda so'zni haqiqiy emas, ko'chma ma'noda qo'llash [2. 2001, 12]) san'ati ham g'azal va muxammas tarkibida qo'llanilgan:

Muxammas tarkibida:

Nozli yor, **ey guluzor**, cho'x beqaror etding meni.

Yig'latib zor, elga oshkor, telba kor etding meni,

Almudom husningga zor, devonavor etding meni,

Beshumor darda giriftor, haqqa zor etding meni,

Zarnigor, **ey shohimor**, sen sharmisor etding mani. [15. 2011, 25-26].

G'azal tarkibida:

Uyqu ermasdur magar, shirin zabonim nozidur,

Ko'zlari jon olg'uchi **qoshi kamonim** nozidur. [12. 2008, 4 g'azal].

“Oshiq” turkum dostonlarida keltirilgan badiiy san’at turlarining yana biri lafziy san’atlar hisoblanadi. “Lafziy go’zalliklarning asosi shuki, alfoz (so’zlar) ma’noga bo’ysundiriladi” [1. 1981, 35]. Umuman olganda, lafziy san’atlar faqat nutqning (xususan, badiiy nutqning va ayniqsa, she’riyatning) bezagi emas, balki muayyan fikr, maqsadning etuk badiiy shaklda ifoda topishi uchun xizmat qiluvchi muhim vositadir [3. 2014, 24 b]. Dostonlarda faqat g’azal tarkibida kelishiga qaramasdan keng foydalanilgan lafziy san’at turi saj’ arabcha so’z bo’lib, lug’aviy ma’nosi jihatidan qumri, bulbul, to’ti kabi xushovoz qushlar tovushining bir-biriga qo’shilib, jo’r bo’lib ketishini anglatadi [21. 1978, 12 b]. “Oshiq” turkum dostonlaridagi deyarli barcha dostonlarga kiritilgan g’azallarda saj’ san’ati qo’llanilgan:

Ham dardimdur, ham **darmon**, jonimdir anga **qurbon**,

O’ldirsa nedur **farmon**, ul shohi jahon keldi. [17. 2011, 138].

Ritorik yoki oddiy so’roq gaplarni qo’llash orqali yuzaga keladigan istifhom san’ati boshqa san’atlardan farqli o’laroq muxammas va mustahzod tarkibida keltirilgan:

Muxammas tarkibida:

Yorsiz giryon ko’zimdin oqmagan qon **qoldimu?**

Bo’lmag’an siynamda zohir dog’i pinhon **qoldimu?**

Ko’rmasam yorimni qon yutmoqg’a imkon **qoldimu?**

Seli ashkim oqmog’on ko’hi biyobon **qoldimu?**

Soqiyoman yutmag’on xunoba-hijron **qoldimu?** [9. 2006, 248].

Mustahzod tarkibida:

Ya’qub nabi mendin sango bir turfa xabar bor,

Jononing emasmu?

Otiki Yusuf, jumla-jahon anga xaridor,

Ul joning emasmu? [17. 2013, 49].

She’riyatda ma’lum bir shaxs yoki narsaga murojaat qilish orqali yuzaga keladigan nido dostonida qo’llanilgan asosiy san’at turlaridan biri hisoblanadi. She’riy parchalarda “Ey robbano”, “Yo rasululloh”, “soqiy”, “shohi sulton”, “chiltan”, “eran” so’zlari nido san’atini yuzaga chiqarishda vosita bo’lib xizmat qilgan.

G’azal tarkibida:

Xastaman, hajringdaman, **ey shahi sultonim**, eshit,

O’lgudekman ko’rmasam, sarvi xiromonim eshit. [19. 2019, 65].

Muxammas tarkibida:

Ber madad, **chiltan, eranlar**, to’g’ri yo’l ko’rsat mango,

Yo Bahouddin vali, do’ndim, sig’indim men sango,

Qul Sulaymon tag’i qil, bir madad mandin yango,

Xojai Xofiz vali, sen yana qil ilhom mango,

Bilmanam men, gul yuzin ko’rmak jamolin bormudir? [18. 2019, 163]

Takrorlashga xoslangan badiiy san’at turlaridan biri tasbe’ bo’lib, faqatgina “Tohir va Zuhra” dostonidagi “Gul” radifli g’azalning 3 ta baytida keladi:

Bulbula gullar munosib, gul munosib **bulbula**,

Bulbula o’tlar solib, husnin guliston qildi gul. [15. 2011, 16].

Bu san’at turi birinchi misra oxiridagi so’zning ikkinchi misra boshida takror kelishini talab qiladi [22]. Ushbu baytda bulbula so’zi orqali tasbe’ san’ati yuzaga chiqqan.

Xorazm dostonlarida qo'llanilgan takroriy san'at turlaridan yana biri qaytariq san'atidir. Ushbu badiiy san'at baytdagi mazkur o'rinlardan biridagi so'zning yana boshqa bir o'rinida takrorlanishiga asoslanadi [22].

Men dedim: "Yo Rab, ne gulsan, gulni hayron aylagan",

Gul kulib, so'zlab o'zi, ham bizni xandon qildi **gul**. [15. 2011, 16].

Bu baytda ikkinchi misraning boshida va oxirida gul so'zi qaytarilishi natijasida qaytariq san'ati paydo bo'lgan. She'r baytidagi birinchi so'zning bayt oxirida takrorlanish [23] san'ati, ya'ni tasdir "oshiq" turkum dostonlaridagi faqat bitta 16 baytli g'azalning 1-2-4-6-7-8-9-baytlarida uchraydi.

Gul gula sarvi xiromon, gul bila aylab xirom,

Sarvni aylab adam, gulni xiromon qildi **gul**. [15. 2011, 16].

"Oshiq" turkum dostonlarida foydalanilgan badiiy san'at turlaridan yana biri kitobat san'ati bo'lib, arab alifbosi harflari shaklidan lirik va epik timsollar chizishda foydalanishdir [2. 2001, 22-23].

Bilmadim men, bul uyg'onmish, yotgan iqbolimmudur,

Yoki xo ul ko'zlari jon olg'uchi zolimmidur,

Yo ochib mushaf yuzin, ko'ngluma xush folimmidur,

Bo'ylari zebo **alif**, yo qomati **dolimmidur**,

Bor parilar sarvari sultoni ko'rdim bu kecha. [18. 2019, 164].

Muxammas tarkibida kelgan alif hamda dol harflari kitobat san'atini yuzaga keltirgan.

Badiiy adabiyotda grammatik qurilmalarning bir xil shaklidan ketma-ket foydalanish orqali yuzaga keladigan san'at turi bu ta'did bo'lib, muxammaslar tarkibida uning namunalarini ko'rishimiz mumkin.

Otima tay ot topilmas, aslo sen etma gumon,

Axtarib ko'r, **Rumu Farang, Bag'dod, Basra, Isfahon,**

Buxoro-yu ham Samarqand, Andijon-u Marg'ilon,

Izlasangda topolmassan bunday otni bibijon,

G'irotimning bahosi Tallixona boshma bosh. [13. 2009, 188].

Ushbu muxammasda bir xil so'roqqa javob bo'ladigan atoqli joy nomlarini ketma-ket sanash orqali ta'did san'ati yuzaga kelganinin ko'rishimiz mumkin.

She'riy san'at turlari tarkibida qaytariqqa o'xshash bo'lgan yana bir turi, ya'ni iltizom san'ati mavjud. Ammo uning farqli jihati shundaki, takror kelishi talab qilingan so'z aynan bir misra yoki baytning boshida, yoinki oxirida emas, balki ijodkor talabi bilan she'riy matnning istalgan o'rinlarida qo'llaniladi.

Gul bilan bulbul kelib, **gul** ichra sayron qildi **gul**,

Gul tomoshosin ko'rib, o'z bargini qon qildi **gul**. [15. 2011, 16].

E'tibor berilsa, gul so'zi har ikki misraning boshi va oxirida qo'llanilishi bilan birga misra o'rtasida ham keltirilgan.

Badiiy san'at turlarining yana bir guruhi borki, "Badoyi'u-s-sanoyi" da ular lafziy ma'naviy go'zalliklar deb ataladi [1. 1981, 225]. Chunki ular ham lafzga, ham ma'noga aloqador deb qaraladi. "Oshiq" turkum dostonlarida ularning uch namunasini ko'rishimiz mumkin. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra hamjins, jinsdosh ma'nolarini anglatuvchi tajnis san'ati ham ma'naviy, ham lafziy san'atlarga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan [3. 2014, 182 b]

bo'lib, "Oshiqnoma"ning birinchi kitobi tarkibiga kiritilgan "Sayyod va Hamro" dostonidagi Hamroning tilidan aytilgan she'riy parchada tajnis namunasini ko'rishimiz mumkin:

Men sevmisham parilarning **birisin**,
Biri "lom"dir, biri "jim"dir, **biri "sin"**,
Biri ovdur, biri ovchi, **biri sin**,
Biri ov qonlidir yor olmasina. [8. 2006, 19].

Ushbu misralarning oxirida qofiyalanib kelayotgan "birisin" so'zlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, birinchi misrada "bittasini", ikkinchi misrada arab alifbosidagi "sin" harfini, uchinchi misrada esa "tuzoq" ma'nosini ifodalab kelgan.

She'rda tasvirlanayotgan shaxs yoki narsaga xos belgilarni ketma-ket keltirish san'ati [2. 2001, 13] hisoblangan tansiq us-sifot odatdagidek g'azal va muxammas tarkibida keltirilgan:

G'azal tarkibida:

Ko'zing ohu, yuzing xumro, labing shakar, qading ra'no,
Man oshiq bulbuli shaydo, talab qilg'on visolimdur. [7. 2006, 143].

Muxammas tarkibida:

Ne ajab toza gul-u, yori sitamgarginayi,
Sochi sunbul, yuzi gul, zulfi muanbarginayi.
So'zlari qand-u novvot, lablari shakkarginayi,
G'amzasi jonima o'q, ro'zi mahsharginayi,
Qo'ymayin oldinda yor arzim bayon o'ldiradur. [16. 2013, 102].

Xorazm dostonlarida faqat bitta o'rinda qo'llanilgan lafziyu ma'naviy san'at turi bu – iqtibos. Iqtibos – Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislarini she'r ichida keltirish yoki ularning mazmunini she'rda ifodalash san'ati bo'lib, "Oshiqnoma"ning 5 kitobi tarkibida keltiriladi.

Ul kalomig'a yozilmishdir ayn birla g'ayn,
Surai alhamda bor, **"hazo sirotil mustaqim"** [14. 2011, 197].

Xulosa

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, "oshiq" turkum dostonlarida qo'llanilgan badiiy san'at turlari doston matnlarida keltirilgan mumtoz janrlarning ham ma'naviy tarafi, shu bilan birga, she'riy parchalar ifoda usulining mukammal bo'lishi uchun muhim vosita vazifasini bajargan. Ularni keng tadqiq etish folklorshunoslik oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Atoullloh Husayniy. 1981. Badoyi'u-s-sanoyi'. Toshkent: G'afur G'ulom.
2. Hojiahmedov A. 2001. She'r san'atlarini bilasizmi? Toshkent: Sharq.
3. Is'hoqov Yo. 2014. So'z san'ati so'zligi. Toshkent: O'zbekiston.
4. "Oshiqnoma" I kitob, 2006. "Edigo" dostoni. Urganch: UrDU.
5. "Oshiqnoma" I kitob, 2006. "Hurliqo va Hamro" dostoni. Urganch: UrDU.
6. "Oshiqnoma" I kitob, 2006. "Malikai Dilorom" dostoni. Urganch: UrDU.
7. "Oshiqnoma" I kitob, 2006. "Roi Chin" dostoni. Urganch: UrDU.
8. "Oshiqnoma" I kitob, 2006. "Sayyod va Hamro" dostoni. Urganch: UrDU.
9. "Oshiqnoma" II kitob, 2006. "Xiromon pari" dostoni. Urganch: UrDU.

10. “Oshiqnoma” II kitob, 2006. “Shahriyor” dostoni. Urganch: UrDU.
11. “Oshiqnoma” III kitob, 2008. “Gul va Sanobar” dostoni. Urganch: UrDU.
12. “Oshiqnoma” III kitob, 2008. “Layli va Majnun” dostoni. Urganch: UrDU.
13. “Oshiqnoma” IV kitob, 2009. “Erhasan” dostoni., Urganch: UrDU.
14. “Oshiqnoma” V kitob, 2011. “Oshiq Qumri” dostoni., Urganch: UrDU
15. “Oshiqnoma” V kitob, 2011. “Tohir va Zuhra” dostoni. Urganch: UrDU.
16. “Oshiqnoma” VI kitob, 2013. “Malikai Zarnigor” dostoni., Urganch: UrDU.
17. “Oshiqnoma” VI kitob, 2013. “Yusuf va Zulayho” dostoni. Urganch: UrDU.
18. “Oshiqnoma” VII kitob, 2019. “Gul va bulbul” dostoni. Urganch: UrDU.
19. “Oshiqnoma” VIII kitob, 2019. “Asilxon” dostoni. Urganch: UrDU.
20. Raimova N. 2022. Xorazm dostonlari poetikasi. Toshkent
21. Sarimsoqov B. 1978. O‘zbek adabiyotida saj’. Toshkent.
22. [www.forum.uz]
23. [www.forum.ziyouz.com]

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/8 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).